


I S T E ' M O L B O Z O R I

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


Andijon viloyati bo'yicha 2019 yil yanvar-may oylarida chakana savdo aylanmasi 4858,7 mlrd so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,2 % ga oshdi.

**2019 yil yanvar-may oylarida ovqatlanish tashkilotlarini
qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda)**



O'tgan yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha tumanlarida o'sish sur'atlari kuzatildi. Xususan, yuqoriroq o'sish sur'atlari Andijon shahri (7,4 % ga), Bo'z (5,7 % ga), Jalaquduq (5,6 % ga), Oltinko'l (5,5 % ga) va Andijon (5,1 % ga) tumanlarida. Yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Qo'rg'ontepa (2,9 % ga), Baliqchi (2,6 % ga) tumanlarida kuzatildi.

Tuman(shahar)larning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, foizda



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Andijon shahri (31,4 %), Shahrixon (13,1 %), Asaka (10,9%), Qo'rg'ontepa (8,5 %) va Baliqchi (5,7 %) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

Shaharlar va tumanlar nomi	Ming so‘m	O‘tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda
Viloyat bo‘yicha:	1 581,6	103,6
Andijon sh.	3 510,1	105,8
Jalaquduq t.	750,5	104,0
Bo'z t.	708,3	103,7
Oltinko'l t.	983,0	103,6
Ulug'nor t.	692,9	102,9
Buloqboshi t.	763,5	102,8
Andijon t.	1 018,8	102,7
Asaka t.	1 649,7	102,7
Ho'jaobod t.	1 377,6	102,7
Marhamat t.	872,0	102,5
Pahtaobod t.	1 023,9	102,5
Izboskan t.	730,7	102,4
Honobod sh.	1 360,0	102,2
Shaxrixon t.	2 183,6	101,9
Qo'rg'ontepa t.	1 958,5	101,1
Baliqchi t.	1 405,4	100,7

Ovqatlanish tashkilotlarini qo‘shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 3,6 % ga oshib, 1581,6 ming so‘mni tashkil etdi (2018 yil 1375,4 ming so‘mni tashkil qilgan edi). O‘rtacha jon boshiga tovar aylanmasining

eng yuqori ko'rsatkichlari Andijon shahri (3510,1 ming so'm), Shaxrixon (2183,6 ming so'm) va Qo'rg'ontepa tumanlarida (1958,5 ming so'm) kuzatildi.

2019 yil yanvar-may oylarida chakana savdo va umumiy ovqatlanishda yirik korxonalar savdo aylanmasi



Mln.so'm


O'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda

Viloyat bo'yicha	577 465,2	140,3
Bo'z t	4 133,3	32,8 M
Oltinko'l t.	7 722,5	4,9 M
Asaka t	47 813,6	4,6 M
Baliqchi t	6 961,1	2,2 M
Ho'jaobod t.	2 335,6	164,3
Andijon sh	453 615,0	140,0
Honobod sh	2 349,4	124,6
Qo'rg'ontepa t.	4 276,0	114,5
Ulug'nor t.	145,6	105,5
Buloqboshi t.	2 501,8	105,0
Andijon t	17 606,6	95,2
Jalaquduq t.	2 612,0	90,3
Marhamat t.	3 041,2	85,5
Shaxrixon t.	14 721,7	78,7
Pahtaobod t.	4 523,8	67,8
Izboskan t.	3 106,0	24,7

KICHIK TADBIRKORLIKNING CHAKANA SAVDODAGI ULUSHI

Kichik tadbirkorlik (бизнес) sub'ektlarining tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,3 %ga o'sdi va jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmining 76,8 % ini tashkil qildi. Kichik tadbirkorlik sub'ektlari umumiy tovar aylanmasi hajmining 2817,2 mlrd.so'mini yakka tartibdagi tadbirkorlar tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning ulushi (foizda)




Chakana savdo tovar aylanmasi umumiy hajmida kichik tadbirkorlik (biznes)ning eng katta ulushi Ulug'nor -99,6 %, Qo'rg'ontepa -99,0 %, Xo'jaobod - 98,4 %, Izboskan - 98,2 % va Jalaquduq - 98,1 % tumanlarida. Eng past ulush Andijon shahar- 70,3 %, Asaka -90,9 % va Bo'z tumanlarida - 91,7 % qayd etildi.

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI


2019 yil yanvar-may oylarida ulgurji tovar aylanmasi hajmi 1061,3 mlrd. so'mni yoki 2018 yilning shu davriga nisbatan 104,5 % ni tashkil qildi. Ulgurji tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan Xonobod shahar 20,7 %, Xo'jaobod 90,3% va Shaxrixon tumanlarida 94,0% ga kamayish kuzatildi.

Kichik tadbirkorlik (biznes) sub'ektlarining ulgurji savdo tovar aylanmasi 2,5 %ga o'sdi va 722,4 mlrd.so'mga yetdi, umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 68,1 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik (biznes) sub'ektlarining ulgurji savdodagi ulushi, (foizda)



2019 yil yanvar-may oylarida ulgurji savdoda yirik korxonalar savdo aylanmasi

	Mln. soʻmda	Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan, foizda
Viloyat boʻyicha	338883,4	109,0
Andijon t	79,6	136,9
Qo'rg'ontepa t.	30 466,7	120,9
Andijon sh	300 549,8	110,4
Oltinko'l t.	64,6	70,0
Baliqchi t	106,2	61,9
Ulug'nor t.	50,6	61,3
Pahtaobod t.	87,8	57,4
Bo'z t	42,3	47,4
Shaxrixon t	4 169,3	45,0
Marhamat t.	60,1	31,3
Jalaquduq t	37,6	27,9
Ho'jaobod t.	76,6	19,2
Izboskan t.	153,4	5,4

2019 yil yanvar-may oylarida ulgurji savdo aylanmasining oʻtgan yilning shu davriga nisbatan oʻsish surʼati yuqori boʻlgan yirik korxonalar Andijon tumani (136,9 %), Qoʻrgontepa tumani (120,9 %) va Andijon shahar (110,4 %) ni tashkil etdi. Xonobod shahar, Asaka va Buloqbosh tumanlarida ulgurji savdo bilan shugʻullanuvchi yirik korxonalar faoliyati bolʻmagan.

2019 yil yanvar-may oylarida oʻtgan yilning shu davriga nisbatan kichik tadbirkorlik (biznes) subʼektlarining savdo aylanmasidagi oʻsish surʼati, foizda



2019 yil yanvar-may oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan mikrofirmalarning savdo aylanmasidagi o'sish sur'ati, foizda




2019 yil yanvar-may oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan kichik korxonlarning savdo aylanmasidagi o'sish sur'ati, foizda



2019 yil yanvar-may oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan yakka tartibdagi tadbirkorlarning savdo aylanmasidagi o'sish sur'ati, foizda



2019 yil yanvar-may oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan yirik korxonalar savdosi



2019 yil yanvar-may oylarida umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi bo'yicha yirik korxonalar faqatgina Andijon tuman (1920,0 mln.so'm) va Andijon shahar (1527,8 mln.so'm) larida mavjud bo'lib jami o'tgan yilga nisbatan 80,9 % ni tashkil etdi. Jamiga nisbatan ulushi 6,2 foizni tashkil qildi.

Andijon viloyat Statistika boshqarmasi
“Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi” bo‘limi

Tel.: (71) 230 – 82 – 53